

G'ARB TAJRIBASIDA AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA SHAXS MADANIYATI TRANSFORMATSİYASI AMALIYOTI

Berdibaev Aydos Tolibaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universitet

tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541815>

Annotatsiya. Mazkur maqolada G'arb davlatlari tajribasi asosida axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyati transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda AQSH, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya misolida raqamli muhit, media savodxonlik, ta'lim siyosati, fuqarolik madaniyati va axborot etikasi shaxs madaniyatining yangilanishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida yoritiladi. Shuningdek, axborotlashgan jamiyatda shaxs madaniyati texnologik taraqqiyot bilan birga tanqidiy tafakkur, mas'uliyatli media iste'moli va raqamli madaniyat orqali shakllanishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, shaxs madaniyati, transformatsiya, G'arb tajribasi, AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, media savodxonlik, raqamli madaniyat, axborot etikasi, fuqarolik madaniyati.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda axborotlashgan jamiyatning shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan izchil rivojlangan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Dastlab ushbu jarayon sanoat jamiyatidan postindustrial jamiyatga o'tish bilan bog'liq holda izohlangan bo'lsa, keyinchalik u alohida ilmiy paradigma ya'ni "axborot jamiyati" nazariyasi sifatida shakllandi. Bu borada amerikalik sotsiolog D.Bell postindustrial jamiyat nazariyasida bilim va axborotning markaziy o'ringa chiqishini ta'kidlab: "postindustrial jamiyatning asosiy tamoyili nazariy bilimning innovatsiya va siyosiy qarorlar qabul qilish manbai sifatidagi markaziy o'rnidir" [1,14] – deya izohlaydi.

Ushbu fikrning mohiyati shundaki, zamonaviy jamiyatda rivojlanishning asosiy manbai moddiy resurslar emas, balki nazariy bilim va ilmiy tafakkur hisoblanadi. Bu esa axborotlashgan jamiyatda shaxsning o'rni va rolini ham tubdan o'zgartiradi. Xususan, inson endi ishlab chiqarish vositalarining oddiy ijrochisi emas, balki bilim yaratuvchi va uni amaliyotga tatbiq etuvchi subyektga aylanadi. Shu jihatdan D.Bell nazariyasi rivojlangan mamlakatlarda ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalarni ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish siyosatini tushuntirib beradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi nazariy yondashuvlar va amaliy siyosatning uyg'unligi asosida amalga oshadi. Bu jarayon bir tomondan ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsiyalar va raqamli infratuzilma bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va madaniy muhitni yangilash bilan chambarchas aloqador. Shu boisdan ham axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy sharti texnologiyalarni joriy etish bilangina cheklanmay, balki insonning bilim, madaniyat va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish bilan bog'liq ekanini rivojlangan davlatlar tajribasi yaqqol namoyon etadi.

Shu o'rinda alohida qayd etish joiz, AQSH tajribasida axborotlashgan jamiyatning shakllanishi, avvalo, postindustrial taraqqiyot, bilim iqtisodiyoti va raqamli kommunikatsiyaning jadal rivoji bilan bog'liq holda kechdi. Bu jarayon faqat texnologik yangilanish bilan cheklanib qolmay, ta'lim tizimi, mehnat bozori, ommaviy kommunikatsiya,

fuqarolik ishtiroki va kundalik turmush madaniyatini ham tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, internet infratuzilmasining kengayishi, raqamli platformalarning ommalashuvi va media makonining interaktiv tus olishi natijasida shaxsning axborot bilan munosabati yangicha mazmun kasb etdi. AQSHda bugun "YouTube"dan foydalanish darajasi juda yuqori bo'lib, 2024-yil ma'lumotiga ko'ra 18 yoshdan kattalarning 83 foizi ushbu platformadan foydalanadi, 68 foizi "Facebook"dan, 47 foizi esa "Instagram"dan foydalanadi [2]. Bu ko'rsatkichlar raqamli media nafaqat aloqa vositasi, balki kundalik madaniy muhitning bir qismiga aylanganini ko'rsatadi.

AQSHda shaxs madaniyati transformatsiyasining yana bir muhim yo'nalishi ommaviy kommunikatsiya va raqamli media bilan bog'liq. Raqamli platformalar shaxsning axborot olish, o'z fikrini ifodalash va jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirdi. Bugungi kunda AQSHda ko'plab foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlardan nafaqat muloqot, balki yangilik olish manbai sifatida ham foydalanmoqda. Masalan, 2025-yilgi Pew Research ma'lumotiga ko'ra, TikTok foydalanuvchilarining 55 foizi, X foydalanuvchilarining 57 foizi ushbu platformalarda muntazam ravishda yangilik olishini bildirgan [3]. Bu holat axborot iste'moli shaklining an'anaviy OAVdan platformali media muhitiga o'tganini ko'rsatadi.

Bunday vaziyat shaxs madaniyatiga ikki xil yo'nalishda ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, insonning axborotga kirish imkoniyati kengaydi, turli nuqtai nazarlar bilan tanishish osonlashdi, fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish va jamoat munozaralarida ishtirok etish imkoniyatlari oshdi. Ikkinchi tomondan esa, axborotning haddan tashqari ko'pligi, tezkor va qisqa formatdagi kontent ustunligi, manipulyativ yoki emotsional axborotning keng tarqalishi shaxsning tahliliy madaniyatiga murakkab bosim ham o'tkazmoqda. AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli muhit shaxsni faolroq qiladi, lekin ayni paytda undan yuqori darajadagi media savodxonlik va tanqidiy tafakkurni ham talab etadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozim, AQSH tajribasida media savodxonlik masalasi alohida dolzarblik kasb etgan. So'nggi yillarda bu yo'nalishda ta'limiy tashabbuslar, nodavlat loyihalar va professional tarmoqlar kengaydi. AQSHda 1997-yildan beri faoliyat yuritayotgan Media savodxonligi ta'limi bo'yicha milliy assotsiatsiyaning 2024-yilgi hisobotida media savodxonlik ta'limini kengaytirish, uni maktab bosqichlarida tizimli integratsiya qilish va umrbod zarur ko'nikma sifatida qarash lozimligi ta'kidlangan. Hisobotda media savodxonlikni AQSHning barcha yosh bosqichlarida rivojlantirish zarurligi ko'rsatiladi.

Umuman olganda, AQSH tajribasida axborotlashgan jamiyat va shaxs madaniyati transformatsiyasi o'zaro chambarchas bog'liq holda shakllangan. Bu yerda bilim iqtisodiyoti, media platformalar, raqamli kommunikatsiya va ta'lim modernizatsiyasi shaxsning yangi madaniy tipini vujudga keltirdi. Ushbu tipga xos jihatlari sifatida axborot bilan ishlash faolligi, yuqori kommunikativ ishtirok, individuallikning kuchayishi, media makonida o'zini ifodalashga intilish va moslashuvchanlikni ko'rsatish mumkin. Biroq ayni jarayon bilan birga axborot bosimi, media manipulyatsiyasi, qisqa formatli tafakkur va ishonch inqirozi kabi ziddiyatlar ham paydo bo'lmoqda. Masalan, 2024-yilgi kuzatuvlarda AQSHda hukumat, OAV va oliy ta'lim kabi institutlarga ishonchning pasayishi qayd etilgan. Shu sabab AQSH tajribasi bir yoqlama ideal model emas, balki imkoniyat va xavflar birligida o'rganilishi lozim bo'lgan murakkab tajriba sifatida ahamiyatlidir.

G'arb davlatlari tajribasini o'rganishda Germaniyani alohida e'tirof etish lozim, Ushbu mamlakatda raqamlashtirish faqat texnologik vositalarni keng joriy etish yoki aloqa

infratuzilmasini takomillashtirish bilan cheklanmaydi. Aksincha, u ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik madaniyatini mustahkamlash, media bilan ongli munosabatni shakllantirish va shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi. Shu jihatdan Germaniya modeli axborotlashgan jamiyatni qurishda texnologik taraqqiyot bilan madaniy va ma'rifiy taraqqiyot o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intilishi bilan ajralib turadi. Mazkur tajribada shaxsning raqamli muhitdagi o'rni oddiy foydalanuvchi sifatida emas, balki axborotni anglaydigan, baholay oladigan va undan mas'uliyat bilan foydalana oladigan ijtimoiy subyekt sifatida talqin qilinadi.

Germaniyada bu yo'nalish, ayniqsa, ta'lim sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Maktab va oliy ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalasi alohida strategik vazifa sifatida ilgari surilgan. Germaniyada ta'lim va madaniyat siyosatini muvofiqlashtiruvchi organ hisoblangan "Kultusministerkonferenz" (Germaniyada ta'lim va madaniyat ishlari vazirlari doimiy konferensiyasi) faoliyatida ham "raqamli dunyoda ta'lim" g'oyasi markaziy o'rin egallaydi. Germaniyada maktablarni raqamli texnologiyalar bilan ta'minlash va ta'limni raqamli muhitga moslashtirishga qaratilgan davlat dasturi doirasida ta'lim muassasalarini raqamli texnologiyalar bilan ta'minlash, o'qituvchilarning raqamli salohiyatini oshirish, o'quv jarayoniga interaktiv vositalarni joriy etish va o'quvchilarda zamonaviy axborot ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor berildi. Bu jarayon Germaniyada axborotlashgan jamiyatni barpo etish, eng avvalo, yosh avlodning dunyoqarashi va madaniy tayyorgarligini yangilash orqali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Mazkur jarayon shaxs madaniyatining ichki mazmuniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Raqamli vositalarning ta'lim va kundalik hayotga kirib borishi natijasida insonning axborotni qabul qilish usuli, uni saralash odati, bilimga munosabati va kommunikativ xulqida yangicha xususiyatlar shakllana boshladi. Germaniya tajribasida ayniqsa muhim jihat shundaki, raqamli kompetensiya faqat texnik mahorat yoki elektron vositalardan foydalanish ko'nikmasi sifatida emas, balki fuqarolik yetukligi va madaniy saviyaning tarkibiy qismi sifatida tushuniladi. Shu sabab bu yerda media savodxonlik, internetdagi odob-axloq me'yorlari, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axborotni tanqidiy tahlil qilish bir-biridan ajratilmaydi. Natijada shaxs madaniyatida ehtiyotkorlik, mas'uliyat, tartiblilik va refleksivlik kabi xususiyatlar kuchayadi. Boshqacha aytganda, Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, axborotlashgan jamiyat sharoitida madaniy taraqqiyotning mezoni texnikadan foydalanish miqdori emas, balki undan foydalanish sifati va maqsadga muvofiqligidir.

Germaniya modelining yana bir muhim tomoni uning shoshilinch va tartibsiz raqamlashtirishdan ko'ra, bosqichma-bosqich va institutsional tayyorgarlikka tayanganligidadir. Bu mamlakatda texnologiyalarni joriy etish masalasi ko'pincha uzoq muddatli strategiyalar, ta'lim standartlari, huquqiy me'yorlar va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'un holda ko'rib chiqiladi. Shu ma'noda, raqamli ta'lim siyosati bu yerda "ta'limni raqamli dunyoga moslashtirish" vazifasi bilan izohlanadi [4].

Demak, Germaniya tajribasi axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyati transformatsiyasi texnologik infratuzilma, ta'lim siyosati, huquqiy tartibga solish va fuqarolik madaniyatining uyg'unligida yuz berishini ko'rsatadi. Bu modelda shaxsning media bilan ishlash madaniyati, axborotga nisbatan tanqidiy yondashuvi, ijtimoiy mas'uliyati va raqamli muhitdagi xulq-atvori oldingi o'ringa chiqadi. Shu bois Germaniya tajribasi axborotlashgan

jamiyatni barpo etishda inson omili, institutsional izchillik va madaniy tayyorgarlikning naqadar muhim ekanini yaqqol namoyon etadi.

G'arb davlatlari tajribasini tahlil etishda Fransiya tajribasini ham alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu mamlakatda raqamli makon faqat aloqa qulayligi yoki axborot almashuvining tezlashuvi bilan baholanmaydi. Aksincha, u shaxsning dunyoni idrok etish usuli, ijtimoiy voqelikka munosabati, madaniy tanlovi va fuqarolik pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim muhit sifatida qaraladi.

Fransiyada internet, mobil aloqa vositalari va raqamli platformalarning keng tarqalishi natijasida axborotga kirish imkoniyati sezilarli darajada oshdi. Bu esa shaxsning axborot iste'moli shakllarini, muloqot odatlarini va madaniy ehtiyojlarini o'zgartirdi. An'anaviy matbuot, radio va televideniye bilan bir qatorda onlayn nashrlar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar shaxs hayotining odatiy qismiga aylandi. Natijada raqamli madaniyat insonning bo'sh vaqtni tashkil etishi, san'at va adabiyot bilan tanishishi, siyosiy jarayonlarni kuzatishi hamda jamoatchilik fikriga qo'shilish usullariga ham ta'sir ko'rsata boshladi.

Fransiya tajribasining muhim tomoni shundaki, bu yerda raqamli madaniyat masalasi madaniy iste'mol bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Kino, musiqa, adabiyot, matbuot va turli ko'ngilochar mahsulotlarning raqamli shaklda iste'mol qilinishi shaxsning estetik didi va madaniy qarashlariga yangi tus berdi. Biroq bu o'zgarish faqat shakliy emas, mazmuniy xarakter ham kasb etadi. Chunki raqamli platformalar shaxsga kontentni erkin tanlash imkonini bergani sari, uning madaniy didi va tanlov mas'uliyati ham ortadi. Bu holat bir tomondan madaniy erkinlik va individuallikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan esa ommaviy madaniyat ta'siri, tijoratlashgan media mahsulotlari ustunligi va estetik mezonlarning soddalashuvi kabi ziddiyatli jarayonlarni ham yuzaga chiqaradi. Shu sabab Fransiya tajribasida raqamli madaniyatning rivoji doimo madaniy siyosat va ijtimoiy nazorat bilan birgalikda olib boriladi.

Fransiya tajribasining yana bir muhim jihati, media savodxonlik va raqamli fuqarolikni demokratik jamiyatning ajralmas qismi sifatida ko'rishidir. Bu mamlakatda axborot bilan ishlash madaniyati faqat texnik ko'nikma emas, balki shaxsning fuqarolik yetukligini ifodalovchi mezon sifatida baholanadi. Dezinformatsiya, manipulyativ axborot, virtual makondagi zo'rvonlik, axborotning ishonchliligi va manbalarni tanlash masalalari raqamli jamiyatning oddiy texnik muammosi emas, balki shaxsning ma'naviy va intellektual barqarorligini belgilovchi omillar sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv natijasida shaxs madaniyatida tanqidiy fikrlash, mas'uliyatli axborot iste'moli, fikrlar xilma-xilligiga hurmat va raqamli etikaga amal qilish kabi sifatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, Fransiya tajribasi raqamli madaniyat va ijtimoiy ong o'zgarishlari bir-biridan ajralmagan holda rivojlanishini ko'rsatadi. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar shaxsning axborotga kirish imkoniyatini kengaytiradi, madaniy tanlov doirasini boyitadi va fuqarolik ishtirokini kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan esa, aynan shu sharoit tanqidiy tafakkur, media savodxonlik, axborot etikasi va raqamli mas'uliyatni ham zarur ehtiyojga aylantiradi. Shu bois Fransiya tajribasida axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyatining transformatsiyasi, avvalo, texnologik emas, balki madaniy-fuqarolik mazmuniga ega bo'lgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda Buyuk Britaniya tajribasini ham alohida ta'kidlash joiz, chunki ushbu mamlakatda axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi media muhitning chuqur

raqamlashtirilishi, axborot iste'moli madaniyatining yangilanishi hamda media savodxonlik va onlayn xavfsizlik masalalarining dolzarblashuvi bilan tavsiflanadi.

Buyuk Britaniyada media muhitning o'zgarishi, eng avvalo, axborot olish manbalari va axborot iste'moli shakllarining yangilanishida yaqqol namoyon bo'ladi. An'anaviy televideniye, radio va bosma matbuot o'z mavqeini saqlab qolayotgan bo'lsa-da, ularning yonida internet nashrlari, video platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmlar asosida ishlovchi axborot manbalari tobora yetakchi o'ringa chiqmoqda. Natijada shaxsning axborot bilan munosabati ham tobora o'zgarib bormoqda.

Ayni paytda media muhitning bunday yangilanishi shaxs oldiga yangi talablarni ham qo'yimoqda. Chunki ko'p manbali va tezkor axborot oqimi sharoitida insonning tanqidiy fikrlashi, ishonchli manbani ajrata olishi, manipulyativ axborotga nisbatan ehtiyotkor bo'lishi va raqamli makonda o'z xulqini nazorat qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan ham Buyuk Britaniyada media sohasini o'rganish va tartibga solishga alohida e'tibor qaratilishi ham bejiz emas. Bu mamlakatda media va kommunikatsiya muhitini nazorat qiluvchi hamda tahlil qiluvchi asosiy institutlardan biri "Ofcom" faoliyati media savodxonlik, onlayn xavfsizlik va axborot iste'molining zamonaviy tendensiyalarini muntazam kuzatib boradi.

Buyuk Britaniya tajribasining muhim jihatlaridan yana biri shundaki, bu yerda media muhitning kengayishi shaxsning o'zini ifoda etish imkoniyatlarini keskin oshirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, video platformalar va boshqa interaktiv maydonlar insonning faqat axborot oluvchi emas, balki kontent yaratuvchi va jamoatchilikka ta'sir ko'rsatuvchi subyekt sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Bunday sharoitda shaxs madaniyati ham ko'proq ochiqlik, faollik va tezkor muloqotga yo'nala boshladi. Biroq ayni jarayon bilan bir qatorda yuzaki fikrlash, emotsional ta'sirchanlik, qisqa formatli kontentga bog'lanish va axborotning tezkor iste'moli kabi ziddiyatli holatlar ham kuchaydi. Demak, media muhitning kengayishi shaxs madaniyatini boyitish bilan birga, uning ichki barqarorligi va tanqidiy tayyorgarligiga nisbatan yangi ehtiyojlarni ham yuzaga chiqarmoqda.

Buyuk Britaniya tajribasida media savodxonlik shaxsning media muhitini tushunishi, unga tanqidiy yondashishi va undan ongli foydalanishi bilan bog'liq ko'nikma sifatida talqin qilinadi [5].

Ushbu yondashuvning ahamiyati shundaki, u media bilan ishlash madaniyatini axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, nazorat qilish va boshqarish qobiliyati bilan bog'laydi. Bu esa shaxs madaniyatining yangilanishi media vositalarining ko'payishi bilan emas, balki ularning mazmunli va mas'uliyatli qo'llanishi bilan belgilanadi, degan xulosaga olib keladi.

Demak, Buyuk Britaniya tajribasi axborotlashgan jamiyat sharoitida media muhit va shaxs madaniyatining yangilanishi o'zaro chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Bu yerda raqamli media shaxsning axborotga kirishini yengillashtirdi, uning ijtimoiy ishtirokini kuchaytirdi va o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Biroq shu bilan birga, media savodxonlik, tanqidiy tafakkur, raqamli etikaga rioya qilish va onlayn xavfsizlik kabi masalalarni ham shaxs madaniyatining ajralmas qismiga aylantirdi. Shu sabab Buyuk Britaniya tajribasi axborotlashgan jamiyatda shaxs madaniyatining yangilanishi faqat texnologik o'zgarishlar bilan emas, balki media muhitni ongli ravishda anglash va undan mas'uliyatli foydalanish madaniyati bilan bog'liq ekanini yaqqol namoyon etadi.

G'arb davlatlari tajribasida shaxs madaniyati transformatsiyasining qiyosiy tahlili

Davlat	Umumiy jihatlar	Farqli jihatlar
AQSH	Shaxs madaniyati transformatsiyasi esa media iste'moli, axborot bilan faol ishlash va kommunikativ faollikning oshishi orqali namoyon bo'ladi.	Shaxsning o'zini namoyon etishi va kontent yaratishi keng imkoniyatga ega.
Germaniya	Shaxs madaniyatida axborotni tanqidiy baholash, mas'uliyatli media iste'moli va raqamli etikaga e'tibor kuchayadi.	Germaniya modelining o'ziga xosligi avvalo bosqichma-bosqich, tartibli va institutsional raqamlashtirishdir. Bu yerda raqamli kompetensiya fuqarolik yetukligining bir qismi sifatida qaraladi.
Fransiya	Axborotlashgan jamiyat shaxs madaniyatining o'zgarishiga, ayniqsa axborot iste'moli, media bilan munosabat va raqamli muloqotning yangilanishiga ta'sir ko'rsatadi.	Fransiyada raqamli madaniyat axborot etikasi, media savodxonlik va fuqarolik ongini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Bunda raqamli madaniyat ko'proq fuqarolik va madaniy mas'uliyat doirasida talqin qilinadi.
Buyuk Britaniya	Internet va media muhitining kengayishi shaxsning axborot olish, muloqot qilish va o'zini ifodalash shakllarini yangilaydi. Shaxs madaniyatida bo'lsa media savodxonlik va tanqidiy yondashuv muhim o'rin tutadi.	Buyuk Britaniya tajribasida media muhitni chuqur o'rganish, onlayn xavfsizlik va axborot ishonchliligini nazorat qilishga alohida e'tibor beriladi. Media savodxonlik fuqarolik madaniyatining asosiy qismi sifatida qaraladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyati transformatsiyasi barcha mamlakatlarda umumiy qonuniyatlarga ega bo'lsada, uning namoyon bo'lish shakllari har bir davlatning siyosiy tizimi, ta'lim siyosati, media muhiti va ijtimoiy qadriyatlariga qarab farqlanadi. AQSH tajribasida raqamli platformalar va innovatsion muhit shaxsning individualligi, kommunikativ faolligi va o'zini namoyon etish ehtiyojini kuchaytirgan bo'lsa, Germaniyada bu jarayon ko'proq ta'lim, media savodxonlik va institutsional tartibga solish bilan uyg'un holda kechadi. Fransiya tajribasida raqamli madaniyat va fuqarolik ongining yangilanishi muhim o'rin tutsa, Buyuk Britaniyada media muhitning o'zgarishi va tanqidiy media savodxonlik masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Bundan xulosa shuki, G'arb davlatlari tajribasi axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyati transformatsiyasi texnologik yangilanishning oddiy natijasi emasligini ko'rsatadi. Bu jarayon ta'lim, media savodxonlik, fuqarolik ishtiroki, axborot etikasi, raqamli huquqlar va ijtimoiy tenglik kabi omillar bilan uzviy bog'liq holda kechadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. — New York: Basic Books, 1973. — P. 14.
2. Jeffrey Gottfried. Americans' Social Media Use. – Pew Research Center, 2024.
3. Pew Research Center. Social Media and News Fact Sheet. — Pew Research Center, 2025.
4. Germaniyada ta'lim va madaniyat ishlari vazirlari doimiy konferensiyasi. Raqamli dunyoda ta'lim. — Berlin: KMK, 2021.
5. Buyuk Britaniyada kommunikatsiyalar bo'yicha boshqarma (Ofcom). Kattalar media savodxonligi 2024. — London: Ofcom, 2024.